

“Navoiy viloyati Nurota tumanidagi “Sentobsoy” sel-suv ombori suv keltiruvchi kanalini rekonstruksiya qilish” ob’ekti bo‘yicha tuzilgan

160240/2022- sonli shartnoma

20 oktobr 2022 yil

Navoiy sh.

Keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladigan, Navoiy viloyati suv omborlari va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshqarmasi nomidan Nizom asosida boshlig‘i I.Raupov, bir tomondan va keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladigan, «LEADER SERVICE NAVOI» MChJ nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktori S.Islamov, ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1.“Pudratchi” mazkur shartnoma shartlariga ko‘ra loyihada ko‘zda tutilgan “Navoiy viloyati Nurota tumanidagi “Sentobsoy” sel-suv ombori suv keltiruvchi kanalini rekonstruksiya qilish” ob’ektida ishlarni bajarish majburiyatini oladi, “Buyurtmachi” esa “Pudratchi” ga yuqoridagi ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. SHARTNOMA BO‘YICHA ISHLAR QIYMATI

2.1. Tanlov natijalariga ko‘ra (17.10.2022 yildagi 160240-sonli bayonnomasiga asosan) (lot 22110012160240) “Navoiy viloyati Nurota tumanidagi “Sentobsoy” sel-suv ombori suv keltiruvchi kanalini rekonstruksiya qilish” ob’ektida bajariladigan ishlarning umumiy qiymati qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan, joriy narxlarda **497 265 800 (Turt yuz to‘qson yetti million ikki yuz oltmishe besh ming sakkiz yuz)** so‘m tashkil etadi.

Tasdiqlangan manzilli dasturga asosan joriy yilda “Pudratchi”ga **497 265 800** so‘m “Sentobsoy” sel-suv ombori suv keltiruvchi kanalini rekonstruksiya qilish” ob’ektini бажариш topshiriladi.

2.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda; ishlar hajmi “Buyurtmachi” tomonidan o‘zgartirilganda.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda, sanab o‘tilgan o‘zgarishlar “Buyurtmachi” bilan “Pudratchi” o‘rtasidagi shartnomaga qo‘srimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

III. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

3.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha “Pudratchi” mazkur shartnomaning I bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnoma, ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni “Buyurtmachi” ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

“Buyurtmachi” ni pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish;

qurilish maydoni qo‘riqlanishini ta’minalash;

obodonlashtirish ishlarni amalga oshirish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarishni o‘z zimmasiga oladi.

IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

4.1. “Buyurtmachi” mazkur shartnomani bajarish uchun:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda ishlarni bajarish uchun yaroqli bo‘lgan qurilish maydonini ob’ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo‘lgan davrda dalolatnoma bo‘yicha “Pudratchi” ga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan “Pudratchi” tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, “Pudratchi” dan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta’minalash;

“Pudratchi” ning barcha murojaatlarini o‘n kun muddatda ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish;

Mualliflik nazoratini tashkil kilish;

moliyalashtirish jadvaliga binoan “Pudratchi” ga bo‘nak berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida “Pudratchi” ga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ijro hujjatlari ro‘yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

V. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

5.1. Qurilishning davom etish vaqtin, ishlarni boshlangan kundan e'tiboran 60 **kunni** tashkil etadi.

5.2. Mazkur shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VI. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

6.1. "Buyurtmachi" "Pudratchi" ga shartnomasi bo'yicha bajariladigan ishlarni qiyomatining 30 foizi mikdorida, ya'ni 149 179 740 (bir yuz qirq to'qqiz million bir yuz yetmis to'qqiz ming yetti yuz qirq) so'm miqdorda bo'nak to'lovini to'lab beradi.

6.2. "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi" ga bo'nak berish va joriy moliyalashtirish ob'ektdagi ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga asosan amalga oshiriladi.

6.3. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni sifati tekshirilgandan keyin, berilgan bo'nakni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning shartnomaviy joriy qiyomatining 100 foizigacha hajmida amalga oshiriladi.

6.4. Ob'ektning texnik shartida ko'rsatilgan kafolat muddatida barcha kamchiliklar pudratchi tomonidan bajarish kafolatlanadi.

Bajariladigan qurilish ob'ektlari bo'yicha "Pudratchi" korxonalar bilan hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan tartibda va to'lov turlari vositasida amalga oshiriladi.

VII. ISHLARNI BAJARISH

7.1. "Buyurtmachi" qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u "Buyurtmachi" ning nomidan bajarilayotgan ishlarni ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek "Pudratchi" tomonidan foydalilanidigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnomasi shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

7.2. Texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

7.3. "Pudratchi" texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor "Pudratchi" tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'lувchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

7.4. "Pudratchi" ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning V bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasiga va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

7.5. "Pudratchi" ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

7.6. "Buyurtmachi" qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun "Pudratchi" ga geodeziya nuqtalarini, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

7.7. "Pudratchi" geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilarini, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida geodeziya ishlardan xatolar aniqlansa, "Pudratchi" "Buyurtmachi" bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

7.8. "Pudratchi" geodeziya bo'lish ishlardan o'rnatiladigan koordinatlari va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnomasi bo'yicha "Buyurtmachi" ga beradi.

7.9. Alovida mas'uliyatlari konstruksiyalar va berkitiladigan ishlarni tayyor bo'lishiga qarab, ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin "Pudratchi", "Buyurtmachi" ni yozma ravishda xabardor qiladi.

7.10. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi "Buyurtmachi" va "Pudratchi" tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda berkitiladigan ishlarni tekshiruvni dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

7.11. "Pudratchi" "Buyurtmachi" ning ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan so'nggina, keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

7.12. Agar berkitiladigan ishlarni "Buyurtmachi" ning tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha "Pudratchi" "Buyurtmachi" ning ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

7.13. Agar "Buyurtmachi" "Pudratchi" va (yoki) uning subpudratchilarini tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda "Pudratchi" o'z kuchlari bilan va qurilish qiyomatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

7.14. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha "Pudratchi" ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, "Buyurtmachi" va "Pudratchi" ning o'zaro munosabatlarda ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar aks ettiriladi.

Agar "Buyurtmachi" ishlarning borishi va sifatidan yoki "Pudratchi" ning qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

“Pudratchi” daftarda “Buyurtmachi” tomonidan asosli ravishda ko’rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko’rish majburiyatini o’z zimmasiga oladi.

Bajariladigan qurilish ob’ektlari bo‘yicha “Pudratchi” korxonalar bilan hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasida o’rnatalgan tartibda va to‘lov turlari vositasida amalga oshiriladi.

VIII. YENGIB BO‘LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1 Agar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmaligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo‘lmaydigan kuch ta’siri natijasida kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir etsa, tomonlar shartnoma shartlarini qisman yoki to‘liq bajara olmasa javobgarlikdan ozod etiladilar. Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u holda “Pudratchi” va “Buyurtmachi” ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishini muhokama qiladilar.

IX. QURILISHI TUGALLANGAN OB’YEKTNI QABUL QILIB OLIBSH

9.1. Qurilishi tugallangan ob’ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo‘lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob’ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

9.2. Ob’ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to‘g‘risida “Pudratchi” ning yozma bildirishnomasi “Buyurtmachi” tomonidan olingan kundan boshlab 5 kun mobaynida ob’ektdan foydalanuvchi sub’ekt bilan birgalikda qabul qilib olinadi.

9.3. “Pudratchi” qurilishi tugallangan ob’ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin “Buyurtmachi” tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. “Pudratchi” “Buyurtmachi” ga ushbu hujjatlar to‘plami amalda bajarilgan ishlarga to‘liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

9.4. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob’ektdan doimiy foydalanuvchi suv xo‘jaligi tashkilotining mulkiga aylanadi.

X. KAFOLATLAR

10.1. “Pudratchi” barcha ishlar to‘liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha hujjatlariga hamda qurilish me’yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

o‘zi tomonidan qurilish uchun qo‘llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga, hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

ishlarni qabul qilish va ob’ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o‘z vaqtida bartaraf qilishni;

ob’ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi;

10.2. Agar ob’ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati, nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar “Pudratchi” tomonidan uning o‘z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari “Pudratchi” va “Buyurtmachi” ning ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar “Pudratchi” bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko‘rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda “Buyurtmachi” mazkur shartnomaning VI bo‘limida nazarda tutilgan kafolat summasini “Pudratchi” dan ushlab qolish huquqiga ega.

10.3. “Pudratchi” nuqsonlar va chala ishlar ko‘rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish “Davarxitektqurilishnazorat” organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo‘yicha iqtisodiy sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XI. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

11.1. “Buyurtmachi” shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi “Buyurtmachi” ga bog‘liq bo‘limgan sabablarga ko‘ra “Pudratchi” tomonidan bir oydan ko‘p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati “Pudratchi” ning aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko‘paygan holda, “Pudratchi” tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

“Pudratchi” tomonidan shartnoma shartlari qurilish me’yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

11.2. “Pudratchi” ishlarning bajarilishi “Pudratchi” ga bog‘liq bo‘limgan sabablarga ko‘ra “Buyurtmachi” tomonidan bir oydan ortiq muddatga to‘xtatib qo‘yilganda;

“Buyurtmachi” tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda; qonun hujjaligiga muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

11.3. Shartnoma bekor qilinganda “Buyurtmachi” va “Pudratchi” ning qo‘shma qaroriga ko‘ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda “Buyurtmachi” ga beriladi, “Buyurtmachi” bajarilgan ishlari qiyomatini “Pudratchi” ga to‘laydi.

11.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon, mazkur bo‘lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

11.5. Shartnoma taraflarning harakat yoki harakatsizligi natijasida bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to‘laydi.

11.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjalarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

12.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon, ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

12.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko‘rsatilgan o‘z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o‘z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzganligi uchun “Buyurtmachi” “Pudratchi” ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlari yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar qiyomatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to‘lanishi “Buyurtmachi” ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

12.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlari hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun “Buyurtmachi” “Pudratchi” ga o‘zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

12.4. “Pudratchi” ob‘ektni o‘z vaqtida ishga tushirish va ishlarni bajarish jadvali bo‘yicha majburiyatlarini buzganligi uchun “Buyurtmachi” ga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob‘ekt shartnomaviy joriy qiyomatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

“Buyurtmachi” tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o‘z vaqtida bartaraf etilmagani uchun “Pudratchi” “Buyurtmachi” ga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlari qiyomatining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi sifatsiz bajarilgan ishlari qiyomatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to‘lash “Pudratchi” ni ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko‘rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

12.5. Agar bajarilgan ishlari sifati belgilangan standartlarga, qurilish me’yorlari va qoidalari, ishlarni hujjaligiga muvofiq bo‘lmasa, u holda “Buyurtmachi” ob‘ektni qabul qilish va uning uchun haq to‘lashdan bosh tortishi, shuningdek “Pudratchi” dan sifati zarur darajada bo‘ligan ishlari qiyomatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

12.6. Shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo‘qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

12.7. “Buyurtmachi” tomonidan ob‘ektda bajarilgan ishlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadsiz foydalanilgan yoki boshqa shartnoma majburiyatlarini buzilgan taqdirda “Pudratchi” O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari» Qonunining (29.08.1998 y., 670-I-son) 35-moddasiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

12.8. Muddat o‘tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to‘lash tomonlarni ushbu majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

12.9. Shartnomada nazarda tutilgan jarima va penya to‘laganligidan qat‘i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o‘zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

12.10. Muddatini o‘tkazib yuborish yoki shartnoma majburiyatlarini o‘zgacha tarzda lozim darajada bajarmaslik hollari uchun belgilangan jarimani va penyaning to‘lash hamda shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, taraflarni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi, qonun hujjalarda va shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

12.11. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan penya, jarima va keltirilgan zararlar “Buyurtmachi” tomonidan “Pudratchi”ni yozma ravishda ogohlantirgan holda “Pudratchi”ga to‘lab beriladigan mablag‘lar hisobidan ushlab qolinadi.

XIII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

13.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo‘ladigan nizoli masalalarini tomonlar hal etolmasa, ular qonun hujjatlari belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

XIV. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH

14.1.Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari yoki qimmatliklarni to‘lashni amalga oshirmaydi.

14.2.Ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarning talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. Jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlar talablarini buzilishi kabi harakatlarni amalga oshirmaydi.

14.3.Ushbu Shartnoma Tomonlarining har biri boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag‘batlantirishdan, shu jumladan pul mablag‘lari, sovg‘alar berish, ularga ish (xizmatlar)ni bepul bajarishi va ushbu bandda ko‘rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag‘batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

Xodimning uni rag‘batlantiruvchi tomon foydasiga amalga oshirgan harakatlari deganda quyidagilar tushuniladi:

- boshqa kontragentlar bilan taqqoslaganda asossiz ustunliklarni taqdim etish;
- har qanday kafolatlar bilan ta‘minlash;
- amaldagi tartib-taomillarni tezlashtirish;
- xodim tomonidan o‘z vazifalari doirasida amalga oshiriladigan, ammo Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo‘lgan boshqa harakatlar.

14.4.Agar Tomonlardan biri mazkur shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini buzgan yoki buzishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Yozma xabarnomadan so‘ng, tegishli Tomon ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarining bajarilishini buzilish sodir bo‘lmasligi yoki sodir bo‘lmasligi tasdiqlangunga qadar to‘xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiq yozma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

14.5.Yozma xabarnomada Tomon kontragent, uning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari tomonidan ushbu shartlar va qoidalarning buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo‘lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya’ni pora olish/berish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlar asoslantirilishi lozim.

14.6.Shartnomaning taraflari korruptsianing oldini olish choralarini ko‘rish tartib-taomillarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda Tomonlar korruptsiyaviy faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan kontragentlar bilan ishbilarmonlik munosabatlari xavfini minimallashtirish, shuningdek, korruptsianing oldini olish maqsadida bir-biriga o‘zaro yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar. Shuningdek, Tomonlar korruptsiyaviy faoliyatga Tomonlarning ishtiroti xavfini oldini olish maqsadida tekshiruvlar o‘tkazish tartib-taomillarini amalga oshirilishini ta‘minlaydilar.

14.7.Tomonlar o‘zlarining sodir etilishi mumkin bo‘lgan noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilishi kontragentning ishonchiligi reytingini pasaytirishidan tortib ushbu shartnomaning bekor qilinishigacha bo‘lgan noxush oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tan oladi.

14.8.Tomonlar maxfiylik tamoyillariga rioya qilgan holda ushbu Shartnomanı bajarish doirasida keltirilgan faktlar bo‘yicha tegishli tartib-taomillar amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha samarali choralarini qo‘llashni kafolatlaydilar.

Tomonlar ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo‘yicha to‘liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari to‘g‘risida xabar bergan Tomon uchun ham, shuningdek, xabar bergan Tomonning xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar keltirmasligini kafolatlaydilar

XV. ALOHIDA SHARTLAR

15.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo‘lgan tomonlar o‘rtasidagi barcha oldingi yozma va og‘zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o‘zaro kelishuvlari o‘z kuchini yo‘qotadi.

15.2. “Pudratchi” qurilish ob‘ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini “Buyurtmachi” ning yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biror-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo‘lmaydi.

15.3. Mazkur shartnomaga barcha o‘zgartirish va qo‘sishchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo‘lsa, haqiqiy hisoblanadi.

15.4. “Buyurtmachi” bilan “Pudratchi” o‘rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo‘lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga

qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

15.5. Agar "Pudratchi" shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda "Buyurtmachi" "Pudratchi" qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

15.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

15.7. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lган 2 (ikki) nusxada tuzildi va taraflar tomonidan imzolanib, G'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar amal qiladi.

XVI. TOMONLARNING BANK RYEKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

BUYURTMACHI:

Navoiy viloyati suv omborlari va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshkarmasi

Navoiy shahar Nizomiy ko'chasi, 24 uy

Tel: (79) 224-46-85

sh/h: 10002186012401704240217006

Bank: MBBB XKkM Toshkent shaxri

MFO: 00014 INN: 305694763

G'aznachilik Navoiy viloyat boshqarmasi

G'azna h/v 23402000300100001010

G'azna INN: 201122919

Boşkarma boşliғи

I.Raupov



PUDRATCHI:

«LEADER SERVICE NAVOI» MChJ Karmana t. Varq MFY

h/r: 20208000000648956001

Banki: Milliy bank Navoiy sh

MFO: 00196

INN: 304209114

Telefon: 998972975000

Direktor

S.Islamov



Huquqshunos xulosasi: Men, ushbu 160240/2022-soni shartnoma loyihasini amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida huquqiy ekspertiza qilib, har ikkala tashkilot ham davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lib, yuridik shaxs hisoblanib, tashkilot rahbari shartnomani imzolash huquqiga ega. Shartnomada shartnoma predmeti, bahosi, tomonlarning huquq va majburiyatları, javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi hamda tomonlarning bank rekvizitlari to'liq ko'rsatilgan bo'lib, shartnoma loyihasi qonunchilik hujjatlariga mos kelishini aniqladim.

Shuning uchun ushbu shartnomani imzolasa bo'ladi deb hisoblayman.

Huquqshunos:

Бони ширинбеков Мамарахимов

Pudrat shartnomasiga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati:

- Ishlarni (bosqichlarga bo'lgan holda) bajarish jadvali.
- Ishlarni (bosqichlarga bo'lgan holda) moliyalashtirish jadvali.
- Buyurtmachi tomonidan ajratiladigan mablag'larning sarflanish yo'nalishlari

22/10/2022 16:02:40

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 160240 на приобретение Navoiy viloyati "Sentobsoy" sel-suv ombori suv keltiruvchi kanalini rekonstruksiya qilish

Способ проведения электронный

Дата 17.10.2022

Время рассмотрения 17.10.2022 09:44

Закупочная комиссия Навоий вилояти Сув омборлари ва Йирик Гидротехник Иншоатлардан фойдаланиш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|-----------------------|----------------------------------|--|--|
| Председатель комиссии | RAUPOV ISKANDAR SAMATOVICH | бошқарма бошлиғи | раиси |
| Секретарь комиссии | XUDAYBERDIYEV ZOIR ZIYATOVICH | Фойдаланиш ва таъмиrlашини ташкил этиш бўйича бош гидротехник | Навоий СО ва ЙГИФБ |
| Член комиссии | SALIYEV NODIR ABDIQAXOROVICH | Техника ва ёнгин хавфсизлигини ташкил этиш бўйича 1-тоифали мухандис | Навоий вилояти сув омборлари ва йирик гидротехника иншоатларидан фойдаланиш бошқармаси |
| Член комиссии | HAMROYEV MIRZOBEK RIZOQUL O'G'Ll | material texnik taminotchi | azosi |
| Член комиссии | SHOMURODOV NODIRJON NAMOZOVICH | Ишлаб чикариш ва таъминот бўйича бош мухандис | Навоий СО ва ЙГИФБ |
| Член комиссии | ADIZOV SANJAR HUSANOVICH | Бош ҳисобчи | Навоий вилояти сув омборлари ва йирик гидротехника иншоатларидан фойдаланиш бошқармаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 17.10.2022 года № лота 160240.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

| | |
|--------------------------------------|---|
| Наименование товара (работы, услуги) | Работы по строительству и реконструкции других сооружений |
| Подробное описание | Работы по строительству и реконструкции других сооружений |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 499 474 523.00 |
| Стартовая сумма | 499 474 523.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Курилиш ишларини бажариш учун техникалари ва техник базаси билан таъминланганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш ишларини бажариш учун техникалари ва техник базаси билан таъминланганлиги

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| ЧП FAYZI-SATTOR | 40 | 40 | 30 | Экспертная | | |
| LEADER SERVICE NAVOI МЧЖ | 40 | Барчаси мавжуд | 30 | Экспертная | | |

Критерий №2 Молиявий барқарорлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Молиявий барқарорлиги

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| ЧП FAYZI-SATTOR | 30 | 30 | 15 | Экспертная | | |
| LEADER SERVICE NAVOI МЧЖ | 30 | Барчаси мавжуд | 25 | Экспертная | | |

Критерий №3 Мутахассислар билан таъминланганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Мутахассислар билан таъминланганлиги

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| ЧП FAYZI-SATTOR | 30 | 30 | 20 | Экспертная | | |
| LEADER SERVICE NAVOI МЧЖ | 30 | Барчаси мавжуд | 25 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|--------------------------|-----------------|--------------------|----------------------------------|------------------------|----------------------|---------------------|-------------------------|
| ЧП FAYZI-SATTOR | 499 474 523.00 | 497 800 000.00 UZS | 497 800 000.00 | 00.00 | 497 800 000.00 | 14.10.2022 07:57:20 | 9.98927 |
| LEADER SERVICE NAVOI МЧЖ | 499 474 523.00 | 497 265 800.00 UZS | 497 265 800.00 | 00.00 | 497 265 800.00 | 14.10.2022 08:17:38 | 10 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|--------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| ЧП FAYZI-SATTOR | 58.5 | 9.98927 | 68.48927 |
| LEADER SERVICE NAVOI МЧЖ | 72 | 10 | 82 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 160240 от 17.10.2022 года на приобретение Navoiy viloyati "Sentobsoy" sel-suv ombori suv keltiruvchi kanalini rekonstruksiya qilish определила победителем:

LEADER SERVICE NAVOI МЧЖ
304209114

и резервный исполнитель: ЧП FAYZI-SATTOR (205233784)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|-----------------------|-----------------------------------|-------------|-------------|
| Председатель комиссии | RAUPOV ISKANDAR SAMATOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | SALIYEV NODIR ABDIQAXOROVICH | Согласен | |
| Член комиссии | HAMROYEV MIRZOBEK RIZOQUL O'G'LII | Согласен | |
| Член комиссии | SHOMURODOV NODIRJON NAMOZOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | ADIZOV SANJAR HUSANOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП